

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi-charmsanoat rivojidadagi hamkorlik

Fan va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va "O'zcharmsanoat" uyushmasi o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Fanlar akademiyasi yetakchi olimlari bilan "O'zcharmsanoat" uyushmasi mutahassislari birgalikda istiqbolli masalalarni bajarish bo'yicha mavjud imkoniyatlar atroficha o'rganildi va tahlil qilindi.

Tomonlar o'rtasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, xalqaro ko'rgazma-yarmakalar, forum va anjumanlar qatnashish, mahalliy teri va mo'yna xom ashyolarni xossalari va hususiyatlarini inobatga olib ularni qayta ishlash uchun texnologik mashinalar va qurilmalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini tayyorlash va bajarish bo'yicha ilmiy-amaliy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolandi.

